


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib



Dastlabki ma'lumotlar

Respublika bo'yicha 2021- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **4076,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 4,0 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **291,6** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **67,7%**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **3785,0** mlrd. so'mni (**8,4 %** ga o'sdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **508,9** mlrd. so'mni (**37,3 %** ga o'sdi) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT

Respublika bo'yicha 2021- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **4076,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **104,0%** ni tashkil etdi.

Respublikamiz chakana savdo tovar aylanmasida Nukus shahri va tumanlarida o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **92,8%** va yirik korxonalar hissasiga **7,2 %** to'g'ri keldi.



ENG YUQORI ULUSH


Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Nukus shahri **29,0%** ulush bilan **1180,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH


Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Bo'zatov tumani **0,6 %** ulush bilan **25,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.



YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Nukus shahri Amudaryo Beruniy Bo'zatov Qonliqo'l Qorao'zak Kegeyli Qo'ng'iro't Mo'ynoq Nukus Taxiatosh Taxtako'pir To'rtko'l Xo'jayli Chimboy Shumanay Ellikqal'a



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, **3785,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **8,4 %** ga o'sgan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **92,8 %** ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Qonliqo'l (99,8 %), Kegayli (99,5 %), Qorao'zak (99,5 %), Nukus (99,4 %), Shumanay (99,4 %), Taxtako'pir (99,1 %), Bo'zatov (99,1 %) va Mo'ynoq tumanlarida (99,2 %) yuqori bo'lgan.





2021- yilning yanvar-iyul oylarida nisbatan respublikaning Nukus shahridan tashqari barcha tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining sur'atlari kuzatilib, nisbatan To'rtko'l (104,2%), Beruniy (104,2%), Amudaryo (104,2%), Bo'zatov (103,6%) va Qonliko'l (104,1 %), tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 076,6	104,0	291,6	67,7	3 785,0	108,4
Nukus shahri	1 180,4	103,7	196,8	57,6	983,7	123,5
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	294,4	104,2	14,2	152,3	280,2	102,6
Beruniy	388,1	104,2	11,6	157,5	376,5	103,1
Bo'zatov	25,3	103,6	0,2		25,1	102,6
Qonliko'l	113,9	104,1	0,3	212,7	113,6	103,9
Qorao'zak	159,5	104,2	0,7	203,8	158,7	104,0
Kegeyli	128,6	103,9	0,6	209,0	128,0	103,7
Qo'ng'irot	271,9	104,1	13,5	51,5	258,4	110,0
Mo'ynoq	32,0	103,4	0,3	188,1	31,7	103,0
Nukus	93,0	103,6	0,6	123,7	92,4	103,5
Taxiatosh	94,6	104,0	16,5	108,8	78,1	103,0
Taxtakopir	91,5	103,7	0,8	57,3	90,7	104,5
To'rtko'l	353,9	104,2	15,6	129,5	338,3	103,2
Xo'jayli	363,4	104,0	7,6	115,7	355,8	103,7
Chimboy	167,9	103,9	5,1	99,7	162,8	104,0
Shumanay	85,5	103,9	0,5	170,3	85,0	103,6
Ellikqal'a	232,8	104,3	6,7	153,6	226,1	103,3

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega tumanlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **67,7 %** ni va **291,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,2 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga
ega tumanlar, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **3785,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **8,4 %** ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,8 %** ni tashkil etdi.




**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**

Nukus sh.	16,7	83,3
Ellikqal'a	2,9	97,1
Shumanay	0,6	99,4
Chimboy	3,1	96,9
Xo'jayli	2,1	97,9
To'rtko'l	4,4	95,6
Taxtako'pir	0,9	99,1
Taxiatosh	17,4	82,6
Nukus	0,6	99,4
Mo'ynoq	0,8	99,2
Qo'ng'iro't	5,0	95,0
Kegeyli	0,5	99,5
Qorao'zak	0,5	99,5
Qonliko'l	0,2	99,8
Bo'zatov	0,9	99,1
Beruniy	3,0	97,0
Amudaryo	4,8	95,2

■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qonliko'l (99,8 %), Kegeyli (99,5 %), Qorao'zak (99,5 %) va Shomanay (99,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 7,2% ni tashkil etib, eng katta ulush Taxiato'sh tumanida (17,4 %), Nukus shahrida (16,7%), Qo'ng'iro't (5,0%) va Amudaryo (4,8 %) tumanlarida kuzatildi.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI BO'YICHA AHOLI
JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O'ZGARISH SUR'ATLARI**

2021- yilning yanvar-iyul oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2114,5** ming so'm (2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 2,7 % ga o'sdi), Nukus shahri, To'rtko'l, Beruniy, Taxtako'pir, Shumanay, Qorao'zak, Chimboy va Ellikqal'a tumanlari aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi yuqori ko'rsatkichlarida o'sish sur'atlari kuzatildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatkichlarni tumanlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Nukus shahri (3632,1 ming so'm), Xo'jayli (2920,9 ming so'm), tumanlari va Qorao'zak (2992,0 ming so'm) hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 114,5	102,7
Nukus shahri	3 632,1	102,4
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	1 457,5	103,1
Beruniy	1 990,5	102,6
Bo'zatov	1 160,2	102,6
Qonliko'l	2 198,3	102,7
Qorao'zak	2 992,0	103,4
Kegeyli	1 756,7	103,2
Qo'ng'iro't	2 063,3	102,9
Mo'ynoq	983,5	101,4
Nukus	1 815,9	102,0
Taxiatosh	1 264,5	102,9
Taxtako'pir	2 264,3	103,2
To'rtko'l	1 621,1	102,6
Xo'jayli	2 920,9	102,9
Chimboy	1 480,4	103,1
Shumanay	1 510,6	103,3
Ellikqal'a	1 433,4	102,6




**UYUSHMAGAN SAVDO
TOVAR AYLANMASI**

Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari

Respublika bo'yicha 2021- yilning yanvar-iyul oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **508,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **37,3%** ga o'sdi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **200,2** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **137,3 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **308,7** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **137,1%**) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar





**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'ZGARISH SUR'ATLARI**

2021- yilning yanvar-iyul oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **200,2** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **308,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	508,9	137,3	200,2	137,3	308,7	137,1
Nukus shahri	79,0	147,4	26,8	127,0	34,8	107,0
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	36,1	86,8	13,8	84,5	17,6	69,8
Beruniy	37,6	124,1	12,8	107,3	24,1	131,5
Bo'zatov	11,9	107,0	5,0	114,0	8,3	122,6
Qonliko'l	20,4	207,3	7,2	187,3	17,5	293,1
Qorao'zak	42,3	158,9	13,3	127,2	28,7	177,9
Kegeyli	46,6	118,2	21,7	140,0	30,3	126,6
Qo'ng'iro't	45,8	123,7	18,0	123,7	22,6	100,7
Mo'ynoq	4,9	119,9	5,3	330,8	0,0	0,0
Nukus	21,6	133,2	8,6	135,2	17,7	179,6
Taxiatosh	8,4	100,0	6,2	189,0	10,5	207,1
Taxtako'pir	19,0	125,0	7,5	125,8	15,3	165,4
To'rtko'l	37,1	146,4	15,9	159,1	18,4	119,7
Xo'jayli	39,8	130,9	12,9	108,1	19,6	106,4
Chimboy	27,8	204,5	11,9	222,3	19,4	235,1
Shumanay	8,6	668,3	4,4	864,6	10,5	1345,0
Ellikqal'a	22,0	341,0	8,5	335,8	13,1	335,0



**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
DEHQON BOZORLARI**



2,4
mlrd. so'm

Tuzlamalar



51,3
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



3,5
mlrd. so'm

**Quritilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**

(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

15,1
mlrd. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



9,8
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

4,6
mlrd. so'm



Tuxum

20,9
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)**

3,0
mlrd. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar**

1,8
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)**

2,3
mlrd.
so'm



Ziravorlar

25,3
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

2021- yilning yanvar-iyul oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **200,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**51,3** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI


2021- yilning yanvar-iyul oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **308,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **56,6** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **9,9** mlrd. so'mni, otlar **1,5** mlrd. so'mni, parrandalar **1,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:





2021- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,0 %** ni tashkil etib, **82,6** mlrd. so'mga yetdi va 2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **88,2%** ni tashkil etdi.. Bunda jami savdo aylanmasining **98,2%** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda




	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyul oylarida nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyul oylarida nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyul oylarida nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	82,6	88,2	1,5	9,1	81,1	104,8
Nukus shahri	34,1	100,5	0,3		33,8	99,6
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	3,5	104,3	-		3,5	104,3
Beruniy	2,4	103,3	-		2,4	103,3
Bo'zatov	0,2	102,8	-		0,2	102,8
Qonliko'l	1,0	102,2	-		1,0	102,2
Qorao'zak	2,2	102,7	-		2,2	102,7
Kegeyli	0,9	105,4	-		0,9	105,4
Qo'ng'iro't	20,6	62,6	1,2	7,3	19,4	116,4
Mo'ynoq	0,3	112,1	-		0,3	112,1
Nukus	0,7	108,4	-		0,7	108,4
Taxiatosh	2,0	107,0	-		2,0	107,0
Taxtako'pir	0,5	102,0	-		0,5	102,0
To'rtko'l	5,0	102,9	-		5,0	102,9
Xo'jayli	4,5	103,4	-		4,5	103,4
Chimboy	2,2	104,3	-		2,2	104,3
Shumanay	0,4	109,4	-		0,4	109,4
Ellikqal'a	2,0	105,5	-		2,0	105,5

MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2020- yil
yanvar-iyul

2021- yil
yanvar-iyul



Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi **82,6** mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 88,2%) va mulkchilik shakllari bo'yicha **82,6** mlrd. so'm nodavlat mulkka (100,0 %) to'g'ri keldi.

	Jami, mln. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	82 559,4	100,0	82 559,4	100,0	-	-
Nukus shahri	34 139,7	41,4	34 139,7	100,0	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	3 545,7	4,3	3 545,7	100,0	-	-
Beruniy	2 388,7	2,9	2 388,7	100,0	-	-
Bo'zatov	202,8	0,2	202,8	100,0	-	-
Qonliko'l	965,4	1,2	965,4	100,0	-	-
Qorao'zak	2 214,1	2,7	2 214,1	100,0	-	-
Kegeyli	859,3	1,0	859,3	100,0	-	-
Qo'ng'iro't	20 554,3	24,9	20 554,3	100,0	-	-
Mo'ynoq	315,2	0,4	315,2	100,0	-	-
Nukus	727,9	0,9	727,9	100,0	-	-
Taxiatosh	1 998,2	2,4	1 998,2	100,0	-	-
Taxtakopir	497,6	0,6	497,6	100,0	-	-
To'rtko'l	5 022,5	6,1	5 022,5	100,0	-	-
Xo'jayli	4 533,4	5,5	4 533,4	100,0	-	-
Chimboy	2 233,8	2,7	2 233,8	100,0	-	-
Shumanay	376,8	0,5	376,8	100,0	-	-
Ellikqal'a	1 983,9	2,4	1 983,9	100,0	-	-

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Respublika bo'yicha 2021- yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1076,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **10,0%** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **298,8** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **66,7%**), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **777,2** mlrd. so'mni (**4,0** % ga o'sdi) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'ZGARISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Taxiatoş (63,0%) Amudaryo (72,3 %),Nukus shahri (71,3 %) kuzatildi.

Ulgurji tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari Taxtako'pir(105,2%), Beruniy (108,6%) va Shumanay (123,4%) tumanlarida qayd etildi.


Ulgurji savdo aylanmasi o'zgarish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 076,0	90,0	298,8	66,7	777,2	104,0
Nukus shahri	532,7	93,2	139,9	71,3	392,8	104,6
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	18,8	108,6	0,8	72,3	18,1	110,9
Beruniy	59,1	108,6	-	-	59,1	108,6
Bo'zatov	1,9	118,2	-	-	1,9	118,2
Qonliko'l	17,4	103,1	-	-	17,4	103,1
Qorao'zak	12,0	101,8	-	-	12,0	101,8
Kegeyli	1,2	104,7	-	-	1,2	104,8
Qo'ng'iro't	29,6	105,0	-	-	29,6	105,0
Mo'ynoq	3,0	101,5	-	-	3,0	101,5
Nukus	72,6	101,3	-	-	72,6	101,3
Taxiatoş	174,8	65,2	158,1	63,0	16,6	99,0
Taxtako'pir	6,7	105,2	-	-	6,7	105,2
To'rtko'l	62,2	102,4	-	-	62,2	102,4
Xo'jayli	16,6	102,6	-	-	16,6	102,6
Chimboy	16,3	104,2	0,0	404,6	16,3	104,1
Shumanay	0,5	123,6	0,0	270,8	0,5	123,4
Ellikqal'a	50,6	100,647	0,0	-	50,6	100,6




YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



RK Nukus shahri Amudaryo Beruniy Bo'zatov Qonliko'l Qorao'zak Kegeyli Qo'ng'iro't Mo'ynoq Nukus Taxiatosh Taxtako'pir To'rtko'l Xo'jayli Chimboy Shumanay Ellikqal'a


Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, **777,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **104,0** % ni tashkil etdi. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 72,0% ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Beruniy, Bo'zatov, Qorao'zak, Kegeyli, Qo'ng'iro't, Qonliko'l va Ellikqal'a tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Taxiatosh (9,5%) tumaniga to'g'ri keldi.



MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

So'nggi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining o'rnini pasayib bormoqda. 2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi **1076,0** mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan nodavlat tasarrufiga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi **1076,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Hududlar kesimida barcha hududlarda ulgurji savdo to'liq nodavlat mulkka tegishli.